


# YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ

# 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR CHIROG'



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ  
WWW.CONFERENCES.UZ



IYUN №53

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
9-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-9**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-9**

**ТОШКЕНТ-2023**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 53-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 26 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ**

<b>1. Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b> XIZMATLAR KO'RSATISH SUBYEKTLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASI VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI TAHLILI.....	7
<b>2. Oripova Ra'no Tolibovna</b> FIRMA FAOLIYATI VA BIZNESDA SOF XARAJATLARNING TURLARI.....	10
<b>3. Reyimberdiyev Bobur, Karimboyeva Dildora Mansur qizi</b> XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI .....	12
<b>4. Ziyayev Muzaffar Ravshanovich</b> O'ZBEKISTONDA KORXONALARNING SOLIQ MUNOSABATLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI DAVLAT BUDJETI TUSHUMLARI DAVOMIYLIGINI VA ULARNING TO'G'RI YO'NALTIRILGANLIGINI TAMINLASH.....	14
<b>5. Содиқжон Мамадиллаевич Зиёдуллаев</b> ТИЖОРAT БАНКЛАРИ АКТИВЛАРИНИНГ РЕНТАБЕЛЛИГИНИ ОШИРИШ ХУСУСИ- ДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР .....	17
<b>6. Ravshan Sattarov</b> PUBLIC PRIVATE PARTNERSHIP CASE OF UZBEKISTAN AND FOREIGN EXPERIENCES (BENEFITS AND RISKS) .....	21



## ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

### XIZMATLAR KO‘RSATISH SUBYEKTLARINING ASOSIY KO‘RSATKICHLAR DINAMIKASI VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI TAHLILI

**Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘qituvchisi


Telefon: + 998 (90) 212-01-94

Elektron pochta: abduxamid.bektemirov@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada respublikamizda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish jarayonida, mazkur sohada faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlarining ahamiyati bo‘yicha fikr-muholazalar bildirilgan hamda xizmat ko‘rsatish subyektlarining so‘ngi yillardagi statistik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** xizmat ko‘rsatish, xizmatlar, tadbirkorlik, xo‘jalik subyektlari, statistik ko‘rsatkichlar, xizmat ko‘rsatish korxonalari.

Bugungi globallashuv va xalqaro integratsiyalashuv sharoitida milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishini ta‘minlash ko‘p jihatdan mamlakatimiz iqtisodiyotining turli sohalari va tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga bog‘liqdir. Negaki, tadbirkorlik faoliyati milliy iqtisodiyotimizning “drayver”iga aylanib bormoqda. Bunga respublikamizning statistika ko‘rsatkichlari yorqin misol bo‘la oladi. Xususan, so‘ngi 23 yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT)ning mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti (YaIM)dagi ulushiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, quyidagi tendensiyalarga guvoh bo‘lamiz (1-rasm).



**1-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi<sup>1</sup> (umumiy hajimga nisbatan %da)**


Respublikamiz YaIMning umumiy hajmiga nisbatan KBXTning ulushi 2000-yilda 31 %ni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2005-yilda 38,2 %ni, 2010-yilda 60,8 %ni, 2015-yilda 64,6 %ni, 2020-yilda 55,7 %ni hamda 2022-yilga kelib 51,8 %ni tashkil etmoqda. Shuni ta‘kidlash lozimki, so‘ngi 15 yilda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz, xalqaro pandemiya (Covid-19), jahon mamlakatlaridagi harbiy-siyosiy ziddiyatlarga qaramasdan mamlakatimizda tadbirkorlik

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumoti. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)



faoliyati jadal rivojlanib kelmoqda va uning soʻngi 23 yilda mamlakatimiz YaIMdagi ulushi oʻrtacha 51,2 %ni tashkil etmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha tarmoqlar va sohalarining jadal rivojlanishi ayni tarmoq yoki sohada faoliyat olib borayotgan korxonalar (tashkilot)larga bevosita bogʻliqdir. Shu nuqtai nazardan taʼkidlab oʻtishimiz lozimki, bugungi kunda xoʻjalik faoliyatini olib borayotgan korxonalar tarkibida, tadbirkorlikning boshqa shakllariga qaraganda koʻplab afzalliklariga egaligi sababli KBXT subyektlari faoliyat yuritayotgan sohasi yoki tarmogʻining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Bunga birgina xizmat koʻrsatish sohasining oʻzida KBXT subyektlarining soni yildan yilga ortib, ularning xizmat koʻrsatish sohasidagi hajmi sezilarli darajada oshib borayotganligi yorqin misol boʻla oladi. Xususan, KBXTning xizmat koʻrsatish sohasidagi hajmi 2010-yilda 15 214,1 (mlrd.soʻm)ni tashkil etgan boʻlsa, ushbu koʻrsatkich 2015-yilda 47 269,6 (mlrd.soʻm)ni, 2020-yilda 114 052,7 (mlrd.soʻm)ni hamda 2022-yil yakunlari boʻyicha olingan dastlabki hisob-kitoblarga koʻra 173 157,7 (mlrd.soʻm)ni tashkil etganligini quyida koʻrib oʻtishimiz mumkin (2-rasm). Ushbu diagrammadan koʻrinib turibdiki KBXTning xizmat koʻrsatish sohasidagi hajmi 2010–2022-yillar oraligʻida oʻrtacha 71 430,85 (mlrd. soʻm)ni tashkil etgan.



2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xizmat koʻrsatish sohasidagi hajmi (mlrd.soʻmda).

Shu oʻrinda, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga oid statistika maʼlumotlariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, umumiy xoʻjalik subyektlari tarkibida xizmat koʻrsatish korxonalarining ulushi sezilarli darajada ortib borganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Xizmat koʻrsatish sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni<sup>2</sup>

Tarmoqlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Savdo	63199	70902	101081	132192	157129	182917
Tashish va saqlash	11996	13330	15360	17301	18251	20666
Yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	17126	19812	25636	30111	33104	36811
Axborot va aloqa	6403	6975	7901	9517	10587	12204
Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	5840	6778	7903	9145	10391	11597
Umumiy	104564	117797	157881	198266	229462	264195

Respublikamiz iqtisodiyot tarmoqlari kesimida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 2018-yilda 285531 tani tashkil etgan boʻlsa, ushbu xoʻjalik subyektlarining 104564 tasi xizmat koʻrsatish korxonalarini hissasiga toʻgʻri keladi, jumladan, savdo korxonalarini

1 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi maʼlumoti. <https://stat.uz>  
 2 Jadval <https://stat.uz> maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.





63199 tani, tashish va saqlash bo‘yicha korxonalar 11996 tani, yashash va ovqatlanish korxonalar 17126 tani, axborot va aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar 6403 tani, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar 5840 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda umumiy korxonalar va tashkilotlar soni 323517 tani va shundan 117797 tasi xizmat ko‘rsatish subyektlari hisobiga to‘g‘ri kelgan, bundan savdo korxonalar 70902 tani, tashish va saqlash bo‘yicha korxonalar 13330 tani, yashash va ovqatlanish korxonalar 19812 tani, axborot va aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar 6975 tani, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar 6778 tani tashkil etgan. 2020-yil yanvar holatiga ko‘ra, umumiy korxonalar va tashkilotlar soni 398133 tani tashkil etgan va ushbu subyektlarning 157881 tasi xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat olib borgan, shundan, 101081 tasi savdo faoliyatida, 15360 tasi tashish va saqlashda, 25636 tasi yashash va ovqatlanish sektorida, 7901 tasi axborot va aloqada, 7903 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda faoliyat yuritgan. 2021-yilning yanvar holatiga ko‘ra, umumiy korxonalar va tashkilotlar soni 475197 tani tashkil etgan va undan 198266 tasi xizmat ko‘rsatish korxonalarini hissasiga to‘g‘ri keladi. Shundan, savdo faoliyatida 132192 ta, tashish va saqlashda 17301 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha 30111 ta, axborot va aloqada 9517 ta, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 9145 ta xo‘jalik subyekti faoliyat olib borgan. 2022-yil yanvar holatiga iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalar va tashkilotlar jami 528929 tani tashkil etayotgan bo‘lsa, ushbu korxonalarning 229462 tasi xizmat ko‘rsatish sohasiga oid korxonalar va tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu xo‘jalik subyektlarining 157129 tasi savdo, 18251 tasi tashish va saqlash xizmatlari bo‘yicha, 33104 tasi yashash va ovqatlanish bo‘yicha, 10587 tasi axborot va aloqa sohasida hamda 10391 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar bo‘yicha o‘z faoliyatini olib bormoqda. Shuningdek, 2023-yil yanvar holatiga iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalar va tashkilotlar jami 592371 tani tashkil etayotgan bo‘lsa, ushbu korxonalarning 264195 tasi xizmat ko‘rsatish sohasiga oid korxonalar va tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Jumladan, xo‘jalik subyektlarining 182917 tasi savdo, 20666 tasi tashish va saqlash xizmatlari bo‘yicha, 36811 tasi yashash va ovqatlanish bo‘yicha, 12204 tasi axborot va aloqa sohasida hamda 11597 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar bo‘yicha o‘z faoliyatini olib bormoqda. Ushbu statistik ma’lumotdan ko‘rinib turibdiki, xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar so‘ngi yillarda o‘rtacha 178694,2 taga ko‘paygan.

Xulosa o‘rnida aytib o‘tishimiz lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlar tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali milliy iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarini, jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasini yanada jadal rivojlantirishga va buning natijasida aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan.

**FIRMA FAOLIYATI VA BIZNESDA SOF XARAJATLARNING TURLARI****Oripova Ra'no Tolibovna**Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani  
Qo'shtepa 1-son kasb-hunar maktabining  
"Biznes asoslari" fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada firma tashkil qilish va yuritish shartlari, biznes yuritish maqsadlari, shuningdek biznesda qilinadigan xarajatlar va ularning turlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** firma, biznes, pul, xarajat, mahsulot, ishlab chiqarish, bozor, kapital.

Tadbirkorlik mavhum narsa bo'lmay, firmalar faoliyatida ifoda etiladi. Firma bozor uchun ishlovchi korxonalar. Korxonalar qaysi mulkka taalluqli bo'lsin firma, zavod, fabrika nomlari bilan yuritiladi. Dehqon xo'jaligi bundan istisno, u fermer xo'jaligi deb ataladi. Qishloq xo'jaligida shirkat firmalar ham faoliyat ko'rsatadi.

Firma muayyan turdagi mahsulot ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashadi, bozorga qarab ish yuritadi, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'ladi.

Har qanday firma kapital negiziga quriladi. Kapital - foyda topish maqsadida firmaga qo'yilgan puldir. Bu pul firmaning o'z mablag'i va bankdan qarzga olingan puldan iborat bo'lib, asosiy aylanma kapitalni tashkil etadi (ular MDH mamlakatlarida asosiy va oborot fondlari deb yuritiladi). Asosiy kapital - bino-inshoat, mashina-uskunalar sarflanadi, ular uzoq xizmat qiladi, masalan, bino 100 yil, mashina 5-10 yil, inshoat 200 yil ishga yarab turadi. Xizmat qilish davriga qarab ularning qiymati har yili qisman yaratilgan tovarlarga o'tadi, mahsulot sotishdan bu qism pul shaklida yana firmaga qaytib keladi. Shu qism amortizatsiya deyiladi. Masalan, tikuvchilik stanogi 500 ming so'm turadi va 5 yil xizmat qiladi. Har yili uning yordamida 50 ming metr gazlama to'qiladi, bu gazlama narxi 2,5 million so'm turadi, shundan 100 ming so'm stanokning amortizatsiyasi hisoblanadi va u stanok narxiga nisbatan 20 foizni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish uchun ashyoviy resurslar (xomashyo, yarim fabrikat, yoqilg'i, elektr energiya, har xil materiallar) va ish kuchi kerak, ularni olish uchun ketadigan pul oborot kapitali (fondi) deb ataladi. Ashyoviy resurslar uzoq xizmat qilmaydi, darhol ishlatiladi va ularning qiymati yaratilgan tovarlarga bir yo'la o'tadi. Yana gazlama misoliga qaytsak, uning 2,5 million so'mdan iborat bir yillik qiymatida 100 ming so'm amortizatsiya bo'lsa, xomashyo, yoqilg'i, materiallar qiymati 1 million so'mga boradi. Ularni olish uchun ajratilgan pul aylanma kapitaldir. Bu pul faqat 200 ming so'm, chunki u bir yilda 5 marta aylanadi yoki qayta muomalaga kiradi. Bu pul gazlama sotilgach, firmaga qaytib keladi, unga yana ashyoviy resurslar olinadi. Bu pul yiliga 5 marta aylanganidan ashyoviy resurslar qiymati 1 million so'm bo'ladi. Firma o'zining pul shaklidagi kapitalini bozorda resursga aylantiradi. Resurslar ishlab chiqarishda qo'llanib, tovarlar va xizmatlar yaratiladi, ular bozorda sotilgach, firma kapitali qaytadan pul shakliga keladi. Firma kapitali bozorga pul shaklida chiqsa, u bozordan resurs shakliga kirib ishlab chiqarishga uning omillari sifatida qaytadi. Bu yerda tovar va xizmatlar shaklida yana qayta bozorga chiqadi va u yerda avval pul shaklini olib, so'ngra biror narsa sotib olingach, resurslarga aylanadi. Xullas, tadbirkor kapitali turli bosqichlardan o'tib, turli shakllarga kiradi va shu yo'sinda doiraviy (aylanma) harakatda bo'ladi.

Firmaning faoliyati bozordan resurs sotib olishdan boshlanadi. Firma moddiy resurslar, ya'ni asbob-uskunalar, stanoklar, transport va aloqa vositalari, xomashyo, yoqilg'i, har xil materiallarni, mehnat bozoridan ish kuchini sotib oladi, ya'ni ishchilarni ishga yollaydi. Kerak bo'lsa binolar va yerni ham sotib oladi. Mabodo zarurat bo'lmasa, ularni ijaraga olib, xaqini to'laydi. Iqtisodiy resurslar uchun qilingan sarf ishlab chiqarish xarajatlariga aylanadi. Yaratilgan tovarlar va xizmatlar, bajarilgan ish birligi uchun sarflangan pul firmaning ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi.

Xarajatsiz hech qandan iqtisodiy faoliyat yuz bermaydi, binobarin, foyda topish mumkin emas. Tadbirkorlar orasida «xarajatsiz harakatning natijasi nolga teng» degan hazil-mutoyiba gap yuradi. Bu gapning tagida chuqur ma'no bor. Ishlab chiqarish albatta resurslarni talab qiladi, resurslarni esa hech kim tekinga bermaydi, ularni sotib olishi kerak. Foydani imkoni boricha ko'paytirishga intilmaydigan firma bo'lmaydi, bunga erishish uchun xarajatlarni imkoni boricha pasaytirish talab etiladi.



Bozordagi narx o'zgartirish sharoitida foydani ko'paytirish sharti xarajatlarni kamaytirishdan iborat. Xarajatlar moddiy resurslar uchun sarflanadigan pul (moddiy resurslar sarfi), ish haqi, har xil mukofotlar, ijtimoiy (sotsial) sug'urta ajratmalari kabi mehnat sarflari va tadbirkorni qoniqtiradigan pul daromadidan iborat. Tadbirkor ishbilarmonlik qobiliyati va zimmasiga mas'uliyatni olib tashlashga ish qilgani uchun el qatori foyda olishi kerakki, uning topadigan daromadi hech bo'lmaganda yuqori ish haqidan kam bo'lmasligi shart. Agar tadbirkor shunday daromad topmasa, tadbirkorlik qilib, halovatini yo'qotishdan ko'ra yollanib ishlagani ma'qul. Aytaylik, malakali ishchi oyiga 8000 so'm topadi, tadbirkorning ko'radigan odatdagi foydasi bundan kam bo'lmagandagina u biznesga qo'l uradi. Mahsulot arzon-garov, ya'ni faqat xarajatni qoplaydigan narxda sotilganda ham tadbirkor foyda oladi, o'z ishini tashlab ketmaydi.

Bozor iqtisodiyotida tanlash qoidasi va zimmaga tushgan xarajat, ya'ni iqtisodiy xarajat mavjud. Ishlab chiqarish uchun tanlab olingan resurslarni eng qulay ishlatgan sharoitlar xarajatlar, ya'ni o'z ishiga jalb etish uchun resurslar egalari to'langan pul zimmaga tushgan xarajatlar yoki iqtisodiy xarajatlar deb ataladi.

Muayyan bir resursni har xil ishlatish mumkin. Masalan, metallardan avtomashina, traktor, ekskavator, stanok, tramvay ishlab chiqarish mumkin. Bulardan qaysi birini ishlab chiqarish uchun resurs jalb etilsa, shunga ketgan xarajat iqtisodiy xarajat hisoblanadi. Binobarin, iqtisodiy xarajatlar muqobil ravishda tanlangan faoliyat xarajatlardir.

Xarajatlarni ishlab chiqarish doirasi bilan cheklab bo'lmaydi. Ular har xil xizmatlarga, chunonchi, savdo-sotiq, davolash, o'qitish, moliyaviy ish yuritish, maslahat berish xizmatlariga ham taalluqli. Tovarlarini oldi-sotdi qilish, ya'ni savdo xizmati ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar muomala xarajatlari deyiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.E.Ishmuxamedov va boshq. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. T.: TDIU, 2006.
2. Zaynutdinov SH.N., Kadirxodjaeva N.R. Bozor nazariyasi. T.: TDIU, 2007y.
3. A.E.Ishmuxamedov va boshq. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari: T.: TDIU, 2004.
4. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.



## XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI

**Reyimberdiyev Bobur**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi

**Karimboyeva Dildora Mansur qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Tel: +998(97)7632110

breyimberdiyev@tsue.uz

**Annonatsiya:** So'nggi-yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalar taraqqiyoti natijasida bevosita investitsiyalar, portfel investitsiyalar va bank ssudalaridan iborat kapitallar xalqaro harakatining kuchayishi globallashuvning diqqatga sazovor xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy resurslar xalqaro oqimining o'sish sur'atlari xalqaro savdo hajmining o'sish sur'atlarini sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Ayniqsa, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining jadallashib borayotgani diqqatga sazovordir.

**Kalit so'zlar:** Jahon bozorlari global raqobati, Globallashuv narx-navovai ste'mol tovarlari sifati unifikatsiyasi, «Buyuk turg'unlik davri», o'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida milliy xo'jalik tizimini takomillashtirish

Xalqaro kapital harakati uning barcha ishtirokchilariga daromad keltiradi. Xorijiy investorlar xalqaro miqyosdagi bozorlarga kirish orqali tavakkalchilikning diversifikatsiyasiga erishib, jahon miqyosida daromad olish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Odatda investitsiya qabul qiluvchi davlatlarda foiz stavkalari darajalari yuqori bo'lib, bu investorlarning o'z kapitalarini yuqoriroq foyda miqdorini ta'minlovchi hududlarga yo'naltirishiga turtki bo'ladi.

Ma'lumki, o'tishdavri iqtisodiyoti mamlakatlarida milliy xo'jalik tizimini takomillashtirish, shuningdek ishlab chiqarish va eksportning diversifikatsiyalashuviga erishish maqsadida mavjud tarmoqlarni rivojlantirish va yangilarini yaratishga ehtiyoj baland. Birvaqtning o'zida, mazkur guruhga kiruvchi aksariyat mamlakatlar ushbu maqsadlarga erishishda ichki moliyaviy resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq o'xshash muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday sharoitda jahon kapital bozoriga chuqur integratsiyalashuv ushbu mamlakatlar uchun iqtisodiyotni isloh qilish va o'sish sur'atlarini jadallashtirish, moliyaviy tizimni barqarorlashtirish hamda milliy valyuta va bank tizimini mustahkamlash kabi masalalarni hal qilishda investitsiyalarni keng jalb qilish orqali jahon moliya bozorlari afzalliklaridan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Globallashuv narx-navo va iste'mol tovarlari sifati unifikatsiyasini tezlashtiradi, global raqobat esa ularning doimiy takomillashuvini talab qiladi. Iqtisodiy yopiqlik, proteksionizm, qolaversa jahon bozorlari global raqobatining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etmasligi resurslarning optimal taqsimlanishi va foydalanilishiga to'sinlik qilib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytiradi.

Globallashuv jarayonlari inson salohiyatini oshirishda ham qulay sharoitlar yaratib bermoqda. U izlanish va tadqiqotlar, ta'lim va tajriba sohasida xalqaro malaka oshirish, qo'shma loyihalar va xorijda tajriba almashinishning jadallashuvi natijasida o'zini milliy iqtisodiyotning muhim innovatsion omili sifatida namoyish etmoqda. Internet va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xo'jalik subyektlarining faoliyat doirasini kengaytirmoqda. Xo'jalik yurituvchilar uning yordamida nisbatan kam xarajatlar evaziga zarur axborotlarga ega bo'lmoqdalar. Shuningdek, ular boshqaruv jarayonida yangi sifatda rejalariga erishish, xo'jalik yuritish salohiyatining oshishi, talab va taklif o'zgarishlariga xos qarorlarni o'z vaqtida qabul qilish imkoniyatga ega bo'lmoqdalar.

Globallashuv jarayonlari jahon xo'jaligida ishtirok etuvchi har bir mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum miqdorda ta'sir etadi va undan qayta ta'sirlanadi. Bozorning turli ishtirokchilari o'z manfaatlarini yo'lida harakat qilib, zanjirsimon jarayonni vujudga keltiradilar. Ularning faoliyat yuritish uslubi doimiy tarzda o'zgarib turishi sababli, jahon xo'jaligi subyektlarining bir-biriga bog'liqlik darajasi oshib bormoqda. G. Fisherning ta'kidlashicha, jahon xo'jaligida global o'zgarishlar tarqalishining o'zigaxos mexanizmi mavjud. Bunga «Buyuk turg'unlik davri» misol bo'lib, inqiroz birmamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'pincha zanjirsimon shaklda tarqalgan: bozorning torayishi, kapitalning boy berilishi-talabning qisqarishi, ishlab-chiqarishni qisqartirish – davlat tomonidan import qiluvchilarga nisbatan bojxona to'siqlarining o'rnatilishi-xalqaro savdo hajmining kamayishi savdo-sotiq bo'yicha hamkor mamlakatlarda ishlab chiqarishning pasayishi



va hokazo.

Globalashuv sharoitida bu kabi jarayonlarning sodir bo'lishi shubhasiz, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga tegishli iqtisodiy siyosat olib borishni taqozo etmoqda. Bu vaziyatda milliy iqtisodiysiyosatning vazifasi nafaqat jahon xo'jaligi jarayonlarida ishtirok etishdan olinadigan nafni maksimallashtirish, balki ushbu holatda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavfni ham minimallashtirishdan iboratdir. Albatta, aksariyat rivojlangan mamlakatlar ham globalashuv jarayonida munosib siyosat yuritish ustida bosh qotirib, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshirishning turlichora-tadbirlarini ishlab chiqmoqdalar. Globalashuv sharoitida amalga oshiriladigan chora – tadbirlarning bozor tamoyillariga qat'iy amal qilishi muhim ahamiyatga egadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T., „O‘zbekiston“, 1999.
- 2.Ergashev T., Sinatov R. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T., „Sharq“, 2001.
- 3.O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. T., „Mehnat“, 1997
- 4.ФишерГ. Глобализация мирохозяйственных связей: сущность, нац Автореферат докторской диссертации. - М., 2000.
- 5.Игорь Пугач “Экономическое Обозрение”



**ЎЗБЕКИСТОНДА KORXONALARNING SOLIQ MUNOSABATLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI DAVLAT BUDJETI TUSHUMLARI DAVOMIYLIGINI VA ULARNING TO‘G‘RI YO‘NALTIRILGANLIGINI TAMINLASH.**

**Ziyayev Muzaffar Ravshanovich,**

Toshkent Moliya Instituti, Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori yo‘nalishi, magistri

Telefon:+998 93 392 00 39

Mr\_mzr@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada soliq tizimi raqamlashtirish va soliqlarning ijtimoiy jihatlarini ko‘rib chiqqan holda yangi soliq munosabatlar tahlili keltirib o‘tilgan. Soliq yig‘imlari va budjet sarf xarajatlari keltirib o‘tilgan. Soliq yig‘imari har tomonlama muqobil tarzda belgilanishi kerakligi asoslari keltirib o‘tilgan. Jahon mamlakatlari soliq tizimi haqida misollar keltirib o‘tilga.

**Kalit so‘zlar:** soliq, soliq qarzi, soliq to‘lovchilar, soliq yig‘imlari, qonun hujjatlari, soliq madaniyati, soliq ma‘muriyatchiligi, davlat budjeti, raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar.

Har qanday davlat o‘zining belgilangan funksiya va majburiyatlarini bajarishi uchun, ya‘ni, mamlakat hududida zarur bo‘lgan inifiraturzilmani yaratishi, ijtimoiy obyektlar faoliyatini yo‘lga qo‘yishi shu bilan bir qatorda davomiyligini taminlashi, mamlakat ichki hayoti va chegaralar xavfsizligi kabi bir qator vazifalarini davlat budjeti orqali amalga oshirishi hech kimga sir emas. Davlat budjeti esa o‘z navbatida bir qator Respublika hududida o‘rnatilgan va barcha uchun majburiy bo‘lgan soliqlar, jarimalar, davlat bojlari va boshqa turdagi tushumlarga ega. Bu keltirilganlar ichida davlat budjetining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. “Rivojlangan mamlakatlarning soliq amaliyotida budjet daromadlarini umumiy summasida soliqlarning ulushi 45-75 foizni tashkil etadi, bu yuqori ko‘rsatkich ekanligidan dalolat beradi”<sup>1</sup>. Bunga yaqqol misol qilib 1-rasmda keltirilgan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlarini ko‘rishimiz mumkin.

Quyida keltirilgan rasmdan yaqqol ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz budjeti asosiy qismi korxonalaridan olinadigan foyda va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rni sezilarli darajada yuqori ko‘rsatkichga ega va mamlakat iqtisodiyoti har jihatdan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga to‘g‘ri kelmoqda. Shuni inobatga olgan holda aytadigan bo‘lsak, huquqiy-tashkiliy jihatdan har tomonlama o‘ylangan va soliq to‘lovchilarning manfaatlari, huquqlari himoyalangan soliqqa tortish tizimi orqali doimiy davlat budjeti taminlanishiga erishish mumkin.



**1-rasm. Soliq turlari bo‘yicha 2022-2023-yillning I-choragida budjetga tushgan tushumlar (mlrd. so‘mda)<sup>2</sup>.**

1 Niyazmetov I.M., O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistrantlari ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to‘plami. – T.: Moliya, 2017. – 241 b.

2 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma‘lumoti.



O‘tgan yillar mobaynida yurtimizda soliqqa tortish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 28-iyun 2022-yildagi "Soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>1</sup>gi Prezident farmonini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Hozirgi jadal suratlar bilan o‘zgarib, takomillashib borayotgan dunyoda dayimiy yangiliklar va qulayliklar vujudga kelmoqda. Ammo hozirgi kunda hali hamon daromadlarni yashirish, soliqdan qochish kabi hodisalar bo‘lmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi asosida bizning soliqqa tortish tizimimizda ma‘lum bir imtiyozlar va tadbirkorlik bilan shug‘illanuvchilarga qulayliklar yaratilishi davlat budjetida yana bir ijobiy o‘zgarish bo‘la oladi.

Mamlakatimiz prezidentining 2023-yil uchun murojaatnomasida ham “Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog‘lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta‘minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o‘rin egallashi kerak”<sup>2</sup>ligi rivojlanishning asosiy ustuvor yonalishlardan biri etib belgilanganligi tadbirkorlik faoliyatining qanchalar mamlakat iqtisodiyotida ajralmas o‘rni borligini, korxonalarining faoliyatiga yangi imkoniyatlar berilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Hozirda ko‘plab tadbirkorlik faoliyatida uchrab turgan soliqdan qochishning asosiy sabablarini ko‘rish orqali biz ularga qanday yechim qila olishimizni ko‘rishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarining hozirgi kunda soliq summasidan qochishi, daromadlarini yashirishi va noqonuniy faoliyat bilan shug‘illanishiga asosiy sabab qilib quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- o‘z qo‘lida qoladigan daromadi miqdorini oshirish;
- yangi ish boshlaganlarda daromaddan ko‘ra soliq miqdorining ko‘pligi;
- doyimiy haqqoniy soliq to‘lovchilar uchun huquqiy imtiyozlarning mavjud emasligi;
- yangi soha bo‘lgan ish faoli bilan shug‘ullanuvchilarga, yangi turdagi mahsulot oldi-sotdisi bilan shug‘illanuvchilarga nisbatan aniq belgilab qo‘yilgan huquqiy normative hujjatlarning emasligi;

- ma‘lum bir yo‘nalishlarda xat-hujjatlarning oddatdagidan ko‘pligi va boshqalar;

Keltirib o‘tilganlardan shuni xulosa qilsak bo‘ladiki, yashirin iqtisodiyotning ulushini sezilarli darajada kamaytirish va soliq bazasini kengaytirish uchun mukammal tizimli tashkil etilgan va soliq to‘lovchilarga yaratilgan imtiyozlar orqali erishimiz mumkin. Rivojlangan va bir qancha tajribalarni qo‘llagan mamlakatlar misolida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin.

Shvesiyada tadbirkorlar va oddiy aholi soliqlarni ijtimoiy yo‘naltirilganlik darajasi yuqoriligi hisobiga soliqlarni o‘z vaqtida, ixtiyoriy ravishda va haqqoniy to‘lashini ko‘rishimiz mumkin. Bunda ular o‘z mablag‘lari hisobidan to‘langan soliq summalari qaysi loyihaga yoki xarajatlarga yo‘naltirilganligini aniq statistik ma‘lumotlar asosida ko‘ra oladilar.

Kanadada soliqdan qarzdorlikning vujudga kelishini oldini olish maqsadida davlat eng avvalo soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamaydiganlar va daromadlarini yashirib ko‘rsatuvchi soliq to‘lovchilarga nisbatan ularning keyinchalik aniqlanadigan soliq qarzlarini undirish borasidagi aniq va o‘ziga xos jihatini hisobga olgan holda tegishli normativ-huquqiy me‘yorlarni ishlab chiqishga kata e‘tibor beradi.

Yaponiyada esa soliq to‘lovchilarga har tomonlama huquqiy yordam ko‘rsatish, soliqlar bo‘yicha maslahatlar berish, axborot va xabardor qilishga yo‘naltirilgan butun bir davlat dasturi mavjud bo‘lib, soliqlarni ixtiyoriy to‘lash madaniyatini oshirishda munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Indoneziyada esa haqqoniy soliq to‘lovchilar har qanday ko‘rinishda rag‘batlantiriladi va davlat tomonidan imtiyozlar taqdim etiladi.

AQSHda soliq organlari tomonidan soliq qarzini majburiy undirishda qonun hujjatlariga muvofiq qat‘iy va keskin choralar amalga oshirilishi sababli soliq to‘lovchilarda mavjud soliqlarni ixtiyoriy ravishda to‘lash madaniyati ancha yuqori darajada shakllangan. Bu keskin choralar o‘z ixtiyori bilan, qastdan to‘lamaydiganlar uchun amalga oshiriladi.

Angliyada qarzdorligi mavjud korxonalar ish faoliyati o‘zganib chiqilib, yakuniy xulosaga asoslangan holda sud qarori bilan qarzdor korxonaga nisbatan belgilangan mudat ichida davlat boji solinmaydi.

Jahon amaliyoti nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, soliq qarzini majburiy tarzda undirish soliq

1 O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Ma‘lumotlari Milliy Bazasi (lex.uz).

2 Review.uz asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha O‘zbekiston bo‘yicha tahliliy sharhlarni nashri.



to'lovchiga nisbatan har doim ham adolatli yondashuv emas. Negaki, soliqdan qarzdorligi mavjud korxonalar o'z moliyaviy ahvolini ijobiy tomonga anglab olishi uchun ma'lum imkoniyatlar yaratilishi korxonaning qaytadan ish faoliyatini yo'lga qo'yib olishi uchun ma'lum bir bosqichlardan o'tadi, bu esa o'z-o'zidan vaqt talab etmay qolmaydi.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan shuni xulosa qilsak bo'ladiki, eng avvalo soliq to'lovchilarning yig'img'larga bo'lgan madaniyatini rivojlantirish uchun soliq yig'img'lariga bo'lgan ishonchini va pul mablag'larining shaffof tarzda taqsimlanayotganini ko'rsatib bera olish kerak. Korxonalarning soliqdan qochishini oldinini olish uchun esa, aniq va mukammal tarzda ishlaydigan, axborot va yangiliklarni, soliqdagi o'zgarishlarni aniq ko'rsatib va tizimning o'zida hisob kitob amallarini bajarib beruvchi dasturiy ta'minot mavjudligi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu keltirib o'tilganlar bilan birgalikda agar adolatli va haqqoniy tarzda soliq to'lab kelayotgan intizomli soliq to'lovchilarga davlar tomonidan bir qator imtiyozlar berilishi soliq to'lovchilarning o'zlari to'layotgan pul mablag'larida kelasida manfaatlari yotganligini his qilgan holda soliq yig'img'larini kechiktirmasdan amalga oshirishlariga erishish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Niyazmetov I.M., O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistrantlari ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to'plami. – T.: Moliya, 2017;
2. Safarov B.Sh., Ayubov I.I., Moliya va Soliq” darslik, Toshkent-2020;
3. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S., Toshkent Moliya Instituti, “Soliqlar va Soliqqa tortish” darslik, Sharq nashriyoti, Toshkent-2009;
4. soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi rasmiy web sayti;
5. review.uz asosiy yo'nalishlar bo'yicha O'zbekiston bo'yicha tahliliy sharhlarni nashri;
6. lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik Ma'lumotlari Milliy Bazasi;





**ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ АКТИВЛАРИНИНГ РЕНТАБЕЛЛИГИНИ ОШИРИШ  
ХУСУСИДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР**

**Содиқжон Мамадиллаевич Зиёдуллаев**

Термиз давлат университетининг

муस्ताқил изланувчиси

ziyodullayevsodiqjon@mail.ru

тел: +998902454747

